



TA'LIM SOHASIDAGI MAMLAKATLAR HAMKORLIGINING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI

**Andijon davlat pedagogika instituti ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
huquq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich magistranti**

No'monjonov Xudoberdi Abdubakir o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlar, shu bilan birga ta'lim sohasini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari va mamlakatlar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy aloqalar bilan bir qatorda ta'lim jarayonini rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor va hamkorlik masalalari hamda ularning huquqiy asoslari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: YUNESKO, xalqaro, ta'lim, integratsiya, ta'lim kafolatlari, sessiya, deklaratsiya.

Kirish

Bugungi kunda axborotlashgan jamiyatda ta'lim tizimi va xalqaro ta'lim hamkorlik faoliyati tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Ta'lim olish huquqi doirasida mamlakatlar chegaralari degan tushuncha birmuncha o'z ahamiyatini yo'qotib, xalqaro ta'lim muhiti shakllanishi hamda ta'lim olish huquqining integratsiyalashuviga olib kelmoqda. Ushbu holatda davlatlarning ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish, ushbu munosabatlarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni hal etish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Ta'lim olishga bo'lgan huquq O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 5-moddasida: «jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanishi belgilangan»³⁶. Aynan ushbu normada keltirilgan ta'lim olish huquqining kafolatlari «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»da ham o'z ifodasini topgan.

Ta'lim olish huquqi inson huquqi sifatida quyidagilarni anglatadi:

Ta'lim olish huquqi hech qanday kamsitishlarsiz barcha uchun qonuniy kafolatlangan.

Davlatlar ta'lim olish huquqini himoya qilish, hurmat qilish va bajarish majburiyatlariga ega.

Davlatlarni ta'lim olish huquqini buzish yoki mahrum qilish uchun javobgarlikka torish usullari mavjud.

Dunyoda ta'lim olish huquqini xalqaro darajada ta'minlash hamda nazorat qilish maqsadida har yili iyun oyidagi sessiyada Inson huquqlari kengashi Portugaliya boshchiligida va bir qancha davlatlar homiyligida «Ta'lim va tarbiya olish huquqi

³⁶ Ўзбекистон Республикаси «Таълим тўғрисида»ги қонуни. ЎРҚ-637.23.09.2020. //www.lex.uz



to'g'risida» rezolutsiya qabul qiladi. Shaxslarning ta'lim olishga bo'lgan huquqi BMT tomonidan ishlab chiqilgan bir qator xalqaro normativ hujjatlar va mintaqaviy shartnomalarda ham belgilab qo'yilgan. Ushbu normativ hujjatlar qatorida shartnomalar eng kuchli kafolatlarni belgilab beradi. Ta'lim sohasidagi hamkorlik faoliyatida davlatlarning o'zaro ikki tomonlama shartnomasi fuqarolarning ta'lim olish huquqini kafolatlash uchun majburiy bo'lgan harakatlarni amalga oshirish majburiyatini yuklaydi. Ammo har qanday davlat shartnomadagi majburiyatlarni bajarishi uchun ushbu shartnomani ratifikatsiya qilishi kerak bo'ladi, ya'ni uni imzolashni o'zi ushbu majburiyatlarni yuzaga keltirmaydi.

Shuningdek, ta'lim olish huquqi YUNESKO ning «Ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi» konvensiyasi (1960), «Irtiqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi (1965), «Iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy huquqlar to'g'risida»gi xalqaro pakt (1966), «Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi (1979), «Bola huquqlari to'g'risida»gi (1989), «Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi (1990), «Nogironlar huquqlari to'g'risida»gi (2006) konvension hujjatlarda aks etgan. Xalqaro ta'lim huquqi borasidagi XMT konvensiyalarida va xalqaro gumanitar huquqda, shuningdek, mintaqaviy shartnomalarda ham e'tirof etilgan.

Davlatlarning ta'lim masalalari bo'yicha hamkorligini taqozo etuvchi ob'ektiv omillar mavjud. Bu omillarni bir necha guruhlariga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh ijtimoiy-iqtisodiy omillardan iborat hisoblanadi. Globallashtirish jarayonlarida davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va intellektual salohiyatini rivojlantirish va tajriba almashish maqsadida ta'lim sohasida davlatlararo hamkorlikni taqozo etmoqda. Masalan, mehnat migratsiyasi davlatlararo darajada ta'lim malaka diplomlarini o'zaro taqqoslash hamda tan olish mezonlarini ishlab chiqishni taqozo etadi³⁷.

Ikkinchi guruh siyosiy omillardan iborat hisoblanadi. Aynan ta'lim masalalari bo'yicha davlatlararo hamkorlik davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatishning muhim vositasidir. Shuningdek bugungi kunda xalqaro ta'lim dasturlarining ishlab chiqilishidan asosiy maqsadlardan biri ham davlatlar o'rtasida do'stona aloqalar hamda mustahkam ilmiy hamkorlikka erishish ko'zda tutilgan.

Uchinchi guruh mafkuraviy omillardan iborat. Bunda har bir davlat ta'lim orqali o'z milliy madaniyatini, jumladan, o'ziga xos ta'lim muhitini yoyishdan manfaatdor hisoblanadi.

To'rtinchi guruh akademik omillardan iborat. Bunda ta'lim va fan xalqaro harakterga ega bo'lib, shuning uchun bilim va tajribaning erkin almashinuvi uchun xalqaro ta'lim olish huquqi hamma uchun erkin va ochiq bo'lishi kerak³⁸.

³⁷ On the problems of migrant workers and their families in the field of education, see: [education des travail- leurs migrants ET de leurs familles. Etudes decas realisees a la demande des commissions nationales de Finlande, France, Suede, Yougoslavie. Paris, UNESCO, 1978

³⁸ Хуеусан, Россия Федерацияси Президентининг 2002-йил 18-октябрдаги қарори билан тасдиқланган Россия таълим



Yuqorida keltirilgan huquqiy omillar fundamental ahamiyatga ega hisoblanadi. Lekin tadqiqot ishida, birinchi navbatda, xalqaro huquqda insonning asosiy huquqlaridan biri – ta’lim olish huquqini mustahkamlab qo’yish haqida bormoqda. Yarim asrdan ko‘proq vaqt oldin BMTga a’zo davlatlar inson huquqlarini ta’minlash bo‘yicha xalqaro akt loyihasini ishlab chiqishda ta’lim olish huquqini insonning eng muhim va hayotiy fundamental huquqlari ro‘yxatiga kiritish zarur degan xulosaga kelishgan. 1948 yilda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» da bu huquq aniq terminologiyada mustahkamlangan bo‘lib, deklaratsiyaning 26-moddasining 1-bandida «Har bir insonda ta’lim olish huquqi bor. Hech bo‘lmaganda boshlang‘ich va umumiy ta’lim olish tekin bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich ta’lim barcha uchun majburiy o‘qitilishi lozim. Fan-texnika va kasb-hunar ta’limi hammaning imkoniyati yetadigan darajada bo‘lish lozim, oliy ta’lim esa har kimning qobiliyatiga ko‘ra hamma uchun yetarli darajada ta’minlanishi kerak»³⁹ deb mustahkamlab qo‘yilgan. O‘sha paytda bu jahon hamjamiyati uchun bu eng katta qadam edi. Keyinchalik insonning ta’lim olish huquqining mazmuni iqtisodiy xalqaro paktlarda, xalqaro huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topdi. Keyinchalik insonning ta’lim olish huquqining mazmuni 1966 yil 16 dekabrda qabul qilingan «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida»gi xalqaro paktda⁴⁰, 1960 yil 15 dekabrda qabul qilingan «Ta’lim sohasidagi har qanday kamsitishlarga qarshi» konvensiya kabi xalqaro huquqiy hujjatlarda ishlab chiqildi. 1979 yil 15 dekabrda qabul qilingan «Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida»gi, «Irtiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida»gi 1965 yil 21 dekabrda qabul qilingan xalqaro konvensiya hujjatlarida belgilab qo‘yilgan. Ta’lim olish huquqini va uni ta’minlash kafolatlarini ta’minlovchi ushbu hujjatlar normalari ta’lim sohasidagi davlatlar hamkorligining eng muhim huquqiy asosidir.

Mutaxassislar ta’lim olish huquqining quyidagi elementlarini ajratib ko‘rsatadilar:

1. Har kimning bilim olish huquqi, unga quyidagilar kiradi:

- a) majburiy va bepul boshlang‘ich ta’lim olish huquqi;
- b) bepul ta’lim bosqichma-bosqich joriy etilgan holda, uning turli shakllarida, shu jumladan o‘rta kasb-hunar ta’limida sifatli va qulay o‘rta ta’lim olish huquqi;
- v) bepul ta’limni bosqichma-bosqich joriy etib, har kimning qobiliyatidan kelib chiqqan holda hamma uchun birdek ochiq bo‘lgan oliy ta’lim olish huquqi;
- d) boshlang‘ich ta’limning to‘liq kursini olmagan yoki tamomlamagan har bir shaxsning boshlang‘ich ta’lim olish huquqi kabi huquqlarga ega bo‘lishi lozim.

муассасаларида хорижий давлатлар учун миллий кадрлар тайёрлаш соҳасида Россия Федерациясининг давлат сиёсати концепциясида шундай дейилган: Ривожланган давлатлар рақобатни кучайтирмоқда. Замоновий жамиятда халқаро воқеаларга таъсир қилишнинг энг самарали воситаларидан бири бўлган жаҳон таълим тизимидаги этакчилик учун. // **Официальные документы в образовании. 2003. № 3. С. 85.**

³⁹ International documents on human rights. Documentation package. M., 2000. 39-43 p.

⁴⁰ International Covenants on Human Rights: A Collection of Documents. St. Petersburg, 1993. 1-12 p.



2. Ota-onalarning yoki ularning qonuniy vakillarining o‘z farzandlari uchun nafaqat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan tashkil etilgan maktablarni, balki davlat tomonidan belgilanishi yoki tasdiqlanishi mumkin bo‘lgan ta’limning minimal talablariga javob beradigan boshqa xususiy maktablarni ham erkin tanlash huquqi.

3. Ota-onalarning farzandlarining o‘z e’tiqodlariga muvofiq diniy-axloqiy tarbiyasini ta’minlash huquqi⁴¹.

Lekin shuni ham ta’kidlash lozimki, barcha davlatlar ham fuqarolarini yetarli darajada ta’lim olish huquqini ta’minlash imkoniyatiga ega emas⁴². Bunda jahon hamjamiyati bunday davlatlarga, xususan, ta’lim sohasidagi davlatlar hamkorligining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan xalqaro tashkilotlar faoliyati orqali yordam beradi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan davlatlarning iqtidorli talabalariga turli grantlar ajratish, yordam fondlari tashkil qilish orqali ta’lim olish huquqini to‘la amalga oshirishlariga yordam beradi. Huquqiy jihatdan sifatli ta’lim olish huquqi xalqaro normalar bilan belgilanib qo‘yilgan bo‘lmasada, har bir davlatning ta’lim sohasidagi normativ hujjatlarida ta’lim sifatini nazorat qilish belgilab qo‘yilgan. Shu o‘rinda ta’lim sifatini quyidagi mezonlarni tahlil qilish asosida aniqlash mumkin: 1) o‘rganilayotgan materialning mazmuni; 2) material hajmi; 3) o‘qitish usullari; 4) talabalar bilimni baholashda xolislik; 5) ta’lim shartlari. Ushbu talablarning har biri sifatli ta’lim olish huquqining mustaqil elementidir. Ushbu talablar 1989 yilda qabul qilingan xalqaro konvensiyaning 2,3,4-moddalarida qayd etilgan⁴³.

Bundan tashqari ta’lim olish huquqida kamsitilisharga qarshi kurash yuzasidan 1997 yil 11 aprelda qabul qilingan Lissabon konvensiyasining muqaddimasida har qanday davlatda ta’lim olgan shaxslarni malaka diplomlari adolatli tarzda tan olinishi, shuningdek boshqa davlatda ta’lim olgani uchun kamsitilishi mumkin emas deb belgilangan⁴⁴. Huddi shunga o‘xshash shartnomaviy hujjat 1983 yilda Tinch okeani va Osiyo davlatlari hamkorligida dastlab Bangkok shahrida keyinchalik esa yangi tahrirda Yaponiya poytaxti Tokioda 2011 yil 26 noyabrda qabul qilingan bo‘lib, hozirda ham o‘z kuchini yo‘qotmagan.

Mazkur «Oliy ta’lim sohasida malakalarni tan olish to‘g‘risida»gi xalqaro hujjatda asosiy masalalar keltirilgan bo‘lib, aholining ta’limga bo‘lgan ehtiyojini yetarlicha ta’minlash, tomonlar talablariga mutanosib ravishda javob beradigan muhitni yaratish va

⁴¹ См. подробнее: Иваненко В.А., Иваненко В.С. Социальные права человека и социальные обязанности государства: международные и конституционные правовые аспекты. СПб, 2003. С. 136-137. Анэлементы выделяет и И.В. Демяненко. См.: Демяненко И.В. Международное право и образование. Дис... канд. юр. наук. Киев. 1992. С. 18.

⁴² Despite the impressive efforts made by countries around the world to ensure "everyone's right to education", the reality is that more than 100 million children do not have access to primary education; up to 895 million adults, two-thirds of whom are women, are illiterate, and functional illiteracy is a significant problem in all countries, both industrialized and developing. See: United Nations Basic Facts Handbook, New-york, 2014, p.209.

⁴³ Convention on Technical and Vocational Education. Adopted by the General Conference of UNESCO at its twenty-fifth session Paris, 10 November 1989. article 1, 2, 3.

⁴⁴ Convention on the Recognition of Qualifications concerning Higher Education in Europe. Portugalia, Lissabon. 11.04.1997



o‘qituvchi va talabalar bilimni yaxshilash va ilmiy tadqiqotni kengaytirish asosiy vazifalar etib belgilangan.

Ta’lim olish huquqining barcha elementlari xususan ta’lim dasturlaridan foydalanish huquqi, sifatli ta’lim olish huquqi va diplom malakalarni adolatli tan olish huquqi, bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu elementlarning har biri zamonaviy ta’lim olish huquqi sifatida nafaqat alohida davlatlar, balki butun dunyo hamjamiyati tomonidan samarali amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, Marokash, Hindiston, Singapur va Tunis kabi davlatlar ta’lim malakasini tan olish borasida diplom hujjatiga emas, balki ko‘proq talabgorlarning bilim va malakasiga, qobiliyatiga qaratish kerakligini qayd etishadi. Yevropa davlatlarida ushbu holat TKXS (ta’lim klassifikatsiyasi xalqaro standart) ga, milliy malaka standartlariga va oliy ta’lim tizimida joriy etilgan Bolonya xujjatlari talablariga uzviy bog‘liq tomonlari ko‘rsatib berilgan.

Shuningdek, ushbu xalqaro normativlarda oliy ma’lumotga ega bo‘lgan bakalavr yoki magistr darajasiga ega shaxslarni xorijda mehnat qilish uchun malakalarini tan olish masalasiga e’tibor kamroq bo‘lib, oliy yoki boshqa turdagi ma’lumot olish uchun xorijga chiqish jarayoniga esa ko‘proq e’tibor berilgan.

Xulosa shuki, qabul qilinadigan xalqaro hujjatlar shunchaki hujjat uchun emas insonlarning, butun dunyodagi ilm oluvchilarning ta’lim va mehnat qilish, yaxshi ijtimoiy – iqtisodiy hayot bilan ta’minlay olish bilan bog‘liq muammolarni hal etishga xizmat qilishi lozim. Shuningdek o‘tgan pandemiya davrida ta’lim olish huquqini sifatli amalga oshirishga birmuncha to‘siqlar ham salbiy ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Xususan xorijda ta’lim olayotgan talabalarning o‘z yurtiga o‘qishini ko‘chirish va yoki ma’sofaviy tarzda davom ettirish kabi muammolar kuzatildi. Mamlakatimizda ushbu muammolarni hal etish uchun «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunga «masofaviy ta’lim olish» tushunchasini kiritildi, shuningdek xorijda o‘qiyotgan talabalarimizni pandemiya davrida hech qanday imtihonlarsiz o‘z yurtimizga o‘qishini ko‘chirish imkoniyati yaratilib berildi. Ushbu harakatlar ham aynan ta’lim olish huquqini har qanday vaziyatda ham ta’minlash kerakligi va ta’limni cheklash mumkin emasligini anglatadi. Albatta ushbu choralarni amalga oshirishda davlatimizning ta’lim sohasidagi hamkorlik faoliyatining yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi va rivojlanib borayotganligini anglatadi.

Bundan tashqari, ta’lim olish huquqining ana shu asosiy elementlari ta’lim sohasidagi davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning eng muhim yo‘nalishlarini belgilab beradi, deb ta’kidlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси «Таълим тўғрисида»ги қонуни. ЎРҚ-637.23.09.2020. [//www.lex.uz](http://www.lex.uz)



2. On the problems of migrant workers and their families in the field of education, see: [/education des travail- leurs migrants ET de leurs families. Etudes decas realisees a la demande des commissions nationales de Finlande, France, Suede, Yougoslavie. Paris, UNESCO, 1978
3. International documents on human rights. Documentation package. M., 2000. 39-43 p.
4. International Covenants on Human Rights: A Collection of Documents. St. Petersburg, 1993. 1-12 p.
5. Despite the impressive efforts made by countries around the world to ensure "everyone's right to education", the reality is that more than 100 million children do not have access to primary education; up to 895 million adults, two-thirds of whom are women, are illiterate, and functional illiteracy is a significant problem in all countries, both industrialized and developing. See: United Nations Basic Facts Handbook, New-york, 2014, p.209.
6. Convention on Technical and Vocational Education. Adopted by the General Conference of UNESCO at its twenty-fifth session Paris, 10 November 1989. article- 1, 2, 3.
7. Convention on the Recognition of Qualifications concerning Higher Education in Europe. Portugalia, Lissabon. 11.04.1997



ILMIY NASHRLAR MARKAZI